

1-Amaliy Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'limiy imkoniyatlari bilan tanishish

Ishning maqsadi: Talabalarga Axborot-kommunikatsiya

texnologiyalarining ta'limiy imkoniyatlari bilan ishlashga o'rgatish. **Ishning nazariy qismi:**

Tizimli dasturning muhim sinflaridan biri **xizmat ko'rsatuvchi dasturlar** ya'ni **utilitlar** hisoblanadi. **Utilitlar**(lotincha **utilitas**-foydali). Bu dasturlar operatsion tizimning imkoniyatlarini to'ldiradi ya'ni kengaytiradi, yoki musta'qil muhim masalalarni yechishga qaratilgandir. **Ular jumlasiga:**

- **Nazorat dasturlari**(testlash va tashxiz dasturlari). Ular, kompyuter qurilmalarining to'g'ri ishlashini tekshirish, nosozliklarni aniqlash, aniqlangan nosozlik sababi va hatto nosozlik joyini ko'rsatadi.
- **Drayver dasturlari**. Kiritish va chiqarish qurilmalari, operativ xotirani boshqarish bo'yicha operatsion tizimning imkoniyatlarini kengaytiradi. Drayver dasturlari yordamida kompyuterlarga yangi qurilmalarni ulash va ulardan foydalanish yoki mavjudlaridan **nostandart** foydalanish mumkindir.
- **Upakovka dasturlari**(arxivatorlar). Bu dasturlar diskarga axborotlarni siqish yordamida yozish va bir qancha fayl nusxalarini bir arxiv fayl sifatida birlashtirish imkonini beradi.
- **Antivirus dasturlari**. Antivirus dasturlari kompyuter viruslarini yuqishini oldini olish yoki yuqilgan virus alomatlarini bartaraf etish uchun xizmat qiladi.
- **Optimizatsiya va disk muxiti sifatini nazorat qilish dasturlari**.
- **Axborotlarni tiklash, formatlash va himoya etish dasturlari**.
- **Kommunikatsion dasturlar**. Boshacha qilib, kompyuterlar orasida axborot almashuvini tashkil etuvchi dasturlar deyiladi.
- **Xotirani boshqarish daturlari**.
- **Acronis True Image Home**-axborot xavfsizligini kafolatlaydigan dasturlarning integratsiyalashgan paketi.

- **CD-ROM, CD-R** va boshqa kompakt diskarga yozishni ta'minlovchi dasturlar va boshqa ko'rinishlardagi dasturlar kiradi.


Axborotlarni siqish usullari. WinRAR, WinZIP dasturlari bilan ishlash.

Arxivator dasturlari-bu disklardagi ma'lumotlar hajmini o'zgartirib, ularni maxsus fayllarga joylashtiradigan dasturlardir. Ular hajmini o'zgartirish tezligi va siqish holatlari bilan farqlanadi. Hajmi o'zgargan ma'lumotlarni saqlovchi fayl-**arxiv** deb nomlanadi. Arxiv faylning nomi va uch harfdan iborat kengaytmasi, fayl qaysi arxivlash dasturida yaratilganligini bildiradi. Masalan: **guruh.rar**, **fakultet.zip** yoki **talaba.arj**. **Windows** operatsion tizimi uchun yaratilgan arxivatorlardan biri **WinRAR** dasturi bilan tanishib chiqaylik. Bu dastur yordamida **RAR** hamda **ZIP** formatli arxivlarni yaratib, yaratilgan arxiv fayllar bilan ishlashimiz mumkin. Dasturni ishga tushirish uchun



amallar ketma ketligi tanlash natijasida quyidagi oyna namoyon bo'ladi.

Ushbu oyna **Windows** oynalariga o'xshab, **standart** interfeysga ega. U



Sarlavxa satri(dastur va arxiv fayl nomlari ko'rsatiladi)






Menyu satri(dasturning hamma buyruqlari joylashgan joy)

 **Uskunalar paneli**(asosiy buyruqlarni bajarish uchun mo'ljallangan tugmalar)

 **Ish sohasi**(ishchi papkalar va ular ichidagi ma'lumotlar)

 **Holat satri**(arxivdagi fayllar soni va ular haqida ma'lumotlar) lardan tashkil topgandir.

Ushbu dasturda ishlash uchun foydalanuvchi uskunalar panelidagi yordamchi tugmalar va ulardan foydalanish amallarini bilishi lozimdir. Yordamchi tugmalar asosiy buyruqlarni bajarish uchun mo'ljallangan bo'lib, quyida ular bilan tanishib chiqaylik:

 Добавить	Tanlangan fayllarni arxiv faylga qo'shish. Agar yangi nom ko'rsatilsa u holda yangi arxiv fayl yaratiladi.
 Извлечь...	Tanlangan papka yo'nalishi bo'yicha fayl yoki fayllarni arxivdan chiqarish(tiklash).
 Тест	Arxivdagi fayllarni xatolarga tekshirish(testdan o'tkazish).
 Просмотр	Arxiv fayl tarkibini ko'rish.
 Удалить	Fayllarni o'chirish.
 Найти	Arxiv-fayllarni yoki oddiy fayllarni topish.
 Мастер	Foydalanuvchilarga yordam berish uchun arxiv ustasini chaqirish.
 Информация	Ma'lumotni ko'rsatish.
 Исправить	Shikastlangan arxiv-faylni tiklash.

Dastur menyusi bandlaridan tashkil topgandir. Ular bilan musta'qil tanishib chiqing.

Disklarni formatlash. Total Commander dasturi.


Total Commander dasturini ishga tushirish:



buyruqlar ketma ketligini tanlash orqali amalga oshiriladi.

Izoh: Dasturga kirishning boshqa masalan, ish stoli yoki asosiy myenyu orqali kirish yo'llaridan foydalanishingiz mumkin.

Natijada quyidagi ishchi oyna namoyon bo'ladi.




Ushbu oyna:

-  Sarlavxa satri
-  Menyu satri
-  Uskunalar paneli
-  Kompyuter diskleri ruyxati
-  Oynada ko'ringan fayl yoki katalogning saqlangan joyi
-  Ish sohasi(ikki qismdan iborat)
-  Holat satri



Ba'zi funksional tugmalar va ularning vazifasi joylashgan satrlardan tashkil topgandir.


Ma'lumotlarning xossasini o'zgartirish uchun, kerakli fayl yoki papka(lar) **“Выделение”** menyusi buyruqlaridan foydalanib belgilanadi va **“Файлы”** menyusidan **“Изменить атрибуты”** buyrug'i tanlanadi. Bu amalni uskunalar yordamida ham bajarishingiz mumkin. Natijada



oyna namoyon bo'ladi. Oynadan kerakli atributlar tanlanib o'zgartiriladi va **OK** tugmasi bosiladi.

Kerakli fayl yoki papkalarni izlash:

Uskunalar panelidan  **“поиск файлов”** buyrug'i orqali ochilgan oynada izlanayotgan fayl yoki papka nomi va uning xossalari kiritilib **“Начат поиск”** buyrug'i tanlanadi. Natijada **“Результаты поиска”** bo'limidan kiritilgan parametrlarga ko'ra topilgan ruyxat namoyon bo'ladi.



Boshqa amallarni mustaqil bajarib ko'ring.